

**KICHIK BIZNES, TADBIRKORLIKNI XORIJ VA O‘ZBEKISTON
IQTISODIYOTIDA TUTGAN O‘RNI**

Jamilova Nargiza Xurramovna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti.

Axborot texnologiyalari va

raqamli iqtisodiyot fakulteti talabasi

nargizajamilova1@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada kichik bines, tadbirkorlikni iqtisodiyotga tutgan o‘rni xorij va O‘zbekiston Respublikasining Qashqadaryo viloyati miqyosida o‘rganildi. Xorij davlatlaridagi yirik kompaniyalar o‘zining tadbirkorligini kichik korxonalar va kichik biznes sohasida boshlab gigant kompaniyalar darajasida rivojlanganligi, xususan Qashqadaryo viloyatida kichik biznes, tadbirkorlikning rivojini tumanlar kesimidagi muammolar o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Tadbirkorlik, kichik beznes, kompaniyalar, xoldinglar, xorijdagi gigant kopaniyalar, Qashqadaryo viloyatida kichik biznes.

Аннотация: В данной статье изучена роль малого бизнеса и предпринимательства в экономике за рубежом и в Кашкадарьинской области Узбекистана, развитие бизнеса, предпринимательства с точки зрения интерпретации проблем и решений в регионе.

Ключевые слова: Предпринимательство, малый бизнес, компании, холдинги, компании-гиганты за рубежом, малый бизнес в Кашкадарьинской области.

Abstract: In this article, the role of small businesses and entrepreneurship in the economy was studied abroad and in the Kashkadarya region of Uzbekistan. the development of business, entrepreneurship in terms of interpretation of problems and solutions in the region.

Keywords: Entrepreneurship, small business, companies, holdings, giant companies abroad, small business in Kashkadarya region.


KIRISH QISMI

Kichik biznes va tadbirkorlikni iqtisodiyotga tutgan o‘rni xorij miqyosida o‘rganadigan bo‘lsak xorijda eng gigant kompaniyalar ham o‘z faoliyatini kichik korxonalar sifarida boshlagan. Masalan, “Apple” kompaniyasini misolida olib qaraydigan bo‘lsak, “Apple”ning hikoyasi bitta avtogaraj va uchta do‘st bilan boshlanadi. Stiv Jobs va Stiv Voznyak - kompaniyaning eng taniqli asoschilaridir. “Apple”ning bozor qiymati 2022-yilning 3-yanvarida savdolar chog‘ida, dunyoda

birinchi bo‘lib \$3 trln.dan oshdi.¹ Yana bir xorijiy xolding kompaniyasi Berkshire Hathaway Omaxa (Nebraska) yillik daromadi \$241,4 mlrd bo‘lib foydasi yiliga \$44,9 mlrd AQSh dollarini tashkil etadi, Bundan tashqari, Coca-Cola, Wells Fargo, IBM va Apple kompaniyalari ham ilk ishlab chiqarishini kichik korxonalar ko‘rinishida boshlaganligi barchamizga sir emas.²

MATERIAL VA METODLAR

Darhaqiqat, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning izchil rivojlanib borishini ta‘minlash orqali mamlakatimizda jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy tayanchi va poydevori bo‘lgan o‘rta sinfning shakllanishiga va uning tobora mustahkam bo‘lib borishiga erishilmoqda. Shunday ekan, endilikda kichik biznesni nafaqat son jihatdan ko‘paytirish, balki uni avvalo sifat jihatdan ham rivojlantirishimiz, bu borada oddiy ishlab chiqarishdan ichki va tashqi bozorga yo‘naltirilgan murakkab, yuksak texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarishga o‘tish masalasiga alohida e‘tibor qaratishimiz darkor. Kichik bines va tadbirkorlikni iqtisodiyotga tutgan o‘rni O‘zbekiston Respublikasining Qashqadaryo viloyatini tumanlari kesimida qaraydigan bo‘lsak 2022 yilning 1-yarim yillik holatiga ko‘ra, viloyat miqyosida kichik tadbirkorlik sub‘yektlarining YaHMDagi ulushi 65,5%ni tashkil qilgan holda, har 1000 nafar aholiga 10 birlik (Respublika o‘rtacha ko‘rsatkichidan 3,9 birlik yuqori)ni tashkil qilgan. Jumladan, tahlil qilinayotgan davrda 34 527 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar (KKM) faoliyat yuritayotgan bo‘lib, shundan 5 057 tasi (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 77,8%, respublikadagi ulushi 10,2%) yangi tashkil qilingan kichik korxonalar va mikrofirmalardir. 1 iyul holatiga ko‘ra faoliyat yuritayotgan KKMLar soni hududlar kesimida tahlil qilinganda, Qarshi sh. (6499 ta), Koson (2828 ta), Qarshi (2501 ta), Qamashi (2470 ta), Kitob (2456 ta), Yakkabog‘ (2337 ta) tumanlarida yuqori ko‘rsatkich qayd etilgan.



¹ <https://www.spot.uz/oz/2023/06/03/apple/>

² <https://kun.uz/news/2018/05/14/trillionlab-dollarlik-biznes-forbes-aksning-eng-jirik-kompaniyalarini-malum-kildi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2018%2F05%2F14%2Ftrillionlab-dollarlik-biznes-forbes-aksning-eng-jirik-kompaniyalarini-malum-kildi>

1-rasm. Kichik tadbirkorlik sub'ektlari-yuridik shaxslar soni (Qashqadaryo viloyati bo'yicha)

Viloyatda faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahlil qilinganda savdo sohasida - 33,2%, sanoat – 15%, qishloq xo'jaligi – 21,4%, qurilish – 9,8%, yashash va ovqatlanish xizmati – 5,7%, tashish va saqlash - 2,9%, axborot va aloqa – 1,3%, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar – 2% va boshqa faoliyat turlari – 8,7%ni tashkil etgan.³Quyidagi jadvalda ham, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni to'g'risida.

1-jadval

Qashqadaryo viloyatida 2023 yilda faoliyat yuritayotgan kichik biznes korxonalarining soni (tumanlar kesimida)

tumanlar	Jami	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
Jami	246	159	87
G'uzor	13	10	3
Dehqonobod	17	12	5
Qamashi	14	10	4
Qarshi	17	10	7
Koson	24	13	11
Kitob	19	11	8
Mirishkor	9	5	4
Muborak	12	6	6
Nishon	17	13	4
Kasbi	7	2	5
Ko'kdala	5	4	1
Chiroqchi	10	8	2
Shahrisabz	5	3	2
Yakkabog'	18	10	8
Qarshi sh	53	40	13
Shahrisabz sh	6	2	4

Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbiarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining

³ <https://review.uz/uz/post/qashqadaryo-viloyatining-2022-yil-yanvar-iyun-oyidagi-kichik-biznes-va-tadbirkorlik-subektlari-korsatkichlari>

umumiy iqtisodiy vaziyatini o‘tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Kichik biznesning mamlakat iqtisodiyotiga qo‘shadigan hissasini oshirilishini, kichik sanoat zonalarining yaratilishi, investitsion muhit va raqobat muhitini yaxshilanishi, kichik biznes bilan davlat-xususiy sherikchiligi doirasida davlat xaridlari hajmini kengaytirilishi, yirik va kichik korxonalar o‘rtasida o‘zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlanishi, innovatsiya jarayonlariga tadbirkorlik subyektlarini jalb qilish orqali ko‘rishimiz mumkin. Shuni ham ta’kidlash joizki, yetarli eksport salohiyatiga ega bo‘lgan, biroq ayni paytda yanada rivojlanish uchun yetarli darajada kapitalga ega bo‘lmagan muvaffaqiyatli va istiqbolli kichik korxonalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash katta ahamiyatga ega. Bir so‘z bilan aytadigan bo‘lsak, mamlakatimizda tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish bugungi kunda davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda⁴

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. Darslik. O.U.Ismailov TDIU
2. SZ Safoevna, MN Juraevna [Analysis of economic efficiency of the use of irrigated land in agriculture and factors on them](#) .Journal of Contemporary Issues in Business and Government 27 (2), 4055-4061
3. З.С. Шохўжаева, Н.Ж. Маманазарова. [Эффективность инновационных процессов в сельскохозяйственном развитии](#). Минтақа иқтисодий ва инновациялашнинг молиявий-ҳуқуқий ва инновацион жиҳатлари. Конф.материаллари, 2020 й. 329-333 бет.
4. З.С. Шохўжаева. [Зарубежный опыт в сельском хозяйстве по использованию водных ресурсов](#). Ж.: Economics №1(44), 2020. Стр. 19-22.
5. ZS Shokhujueva, HN Mirjamilova. Innovative processes in the water sector and factors influencing their development. Asian Journal of Research in Business Economics and Management. №5, 2022.
6. Shoxojaeva Zebo Safoevna, Mamanazarova Nasiba Juraevna. Economic efficiency of modernization and development of water facilities in agriculture. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal №8, 2020. Page 195-201.
7. З.С. Шохўжаева. Иқтисодий ва инновациялаш шароитида аграр соҳани ривожлантириш истиқболлари. Монография. Тошкент, 2020.

⁴ KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK Dilshod Anvarjanovich Ismailov Oybek Utbasarov Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti maqola 7 bet https://cyberleninka.ru/viewer_images/19161631/f/1.png
<https://cyberleninka.ru/article/n/kichik-biznes-va-xususiy-tadbirkorlik>

8. SZ Safoevna, MN Juraevna [Sustainable management and efficient use of water resources in the conditions of economic modernization](#) . ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Journal 2021 . 1202-1208 page.
9. N.J.Mamanazarova. Key Indicators of Efficiency of Reclamation Measures on Irrigated Land. Academic Journal of digital Economics and Stability. 2021 Page 564-570
10. [F Qodirov](#), B Suvonov - Solution of social problems in management ..., 2023 - econferences.ru. [Development Of An Automatic Ventilation System For Smart Greenhouses](#) <https://doi.org/10.5281/zenodo>.
11. Qodirov, F., & Suvonov, B. (2023). Development Of An Automatic Ventilation System For Smart Greenhouses. *Solution of social problems in management and economy*, 2(13), 168-172.
12. Iskandar o'g'li, S. B. Tabiiy gazni qayta ishlash jarayonining intellektuallashtirilgan boshqaruvida noaniq mantiq asosidagi modeldan foydalangan holda nazorat qilish. <https://t.me/openscholar> Multidisciplinary Scientific Journal April, 2023
13. Abduqodirov, A. A., Yusupbekov, A. N., Suvonov, B. I., & Toshtemirov, R. T. (2022). Tabiiy gazni qayta ishlash jarayonining intellektuallashtirilgan boshqaruvida noaniq mantiq asosidagi modeldan foydalangan holda nazorat qilish. *инновационные подходы, проблемы, предложения и решения в науке и образовании*, 1(1), 100-108.
14. Suvonov, B., & Jamilova, S. (2024). Sun'iy intellektual tizimlarda noaniq mantiqning ahamiyatliligi va uning aniq mantiqdan farqi. *Interpretation and researches*, (4 (26)).
15. N.J.Mamanazarova, H.N.Mirjamilova. Resurstejamkor texnologiyalardan foydalanishning tuproq unumdorligi va ekinlar hosildorligini oshirishga ta'siri. "Экономика и социум" журналы, №3(118) 2024. www.iupr.ru
16. <https://www.spot.uz/oz/2023/06/03/apple/>
17. <https://kun.uz/news/2018/05/14/trillionlab-dollarlik-biznes-forbes-aksning-eng-jirik-kompanialarini-malum-kildi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2018%2F05%2F14%2Ftrillionlab-dollarlik-biznes-forbes-aksning-eng-jirik-kompanialarini-malum-kildi>
18. <https://review.uz/uz/post/qashqadaryo-viloyatining-2022-yil-yanvar-iyun-oyidagi-kichik-biznes-va-tadbirkorlik-subektlari-korsatkichlari>
19. O'zbekiston Respublikasining Qashqadaryo viloyati stat .uz